dagi burchini anglashini, el manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yishini yuksak ma’naviy fazilat sifatida baholaydi.

Shunday qilib, Muhammadniyoz Nishotiy ijodida vatanparvarlik g‘oyalari insonning ma’naviy kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va milliy qadriyatlarning davomiyligini ta’minlovchi muhim tarbiyaviy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur qarashlar bugungi kunda ham yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va fuqarolik mas’uliyati ruhida tarbiyalashda muhim ma’naviy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa, Muhammadniyoz Nishotiy ijodini pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, shoirning ma’naviy-ma’rifiy qarashlarida estetik tarbiya, insonparvarlik va vatanparvarlik g‘oyalari o‘zaro uzviy bog‘langan yaxlit tarbiyaviy tizimni tashkil etadi. Mazkur qarashlar insonning nafaqat axloqiy kamolotini, balki uning ruhiy, estetik va ijtimoiy yetukligini ta’minlashga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Nishotiy talqinida estetik tarbiya insonning go‘zallikni anglash, nafislikni qadrlash va ma’naviy poklikka intilish kabi fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Insonparvarlik tarbiyasi esa mehr-oqibat, muruvvat, bag‘rikenglik va adolat tamoyillari asosida insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, shoirning vatanparvarlik haqidagi qarashlari insonning milliy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, jamiyat manfaatlariga daxldorlik hissini anglash va o‘z el-yurtiga sadoqat ruhida yashashi bilan bog‘liq holda talqin etiladi.

Mazkur jihatlar Muhammadniyoz Nishotiyning pedagogik qarashlari zamonaviy tarbiya konsepsiyalari bilan uyg‘unlashgan holda o‘zining ilmiy va tarbiyaviy qimmatini saqlab qolayotganligini ko‘rsatadi. Shu sababli shoir merosidan ta’lim-tarbiya amaliyotida samarali foydalanish yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Нишотий. Ҳусн ва Дил. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967.

(2). Абдуллаев В. Хокисор ва Нишотий. Самарқанд, 1960.

(3). Расул Х. Нишотий. «Ҳусн ва Дил». Лирика. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967.

(4). Шукурова Г. Нишотий ҳаёти ва ижоди ўрганилиши. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. 2023.

(5). Абдураҳмонова О.И. Нишотий мунозараларининг матний таҳлили. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Тошкент, 2021.

(6). Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз такомил босқичлари. Тошкент, “Шарқ”, 1996.

(7). Отамуротов С. Маънавият асослари. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2002.

(8). Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008.

Nashirova Dilnoza Burievna (Qarshi davlat Texnika universiteti dotsenti)

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA YO‘NALMA HARAKAT FE’LLARINING VALENTLIK XUSUSIYATLARI VA LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi yo‘nalma harakat fe’llarining valentlik xususiyatlari, argument strukturasi, yo‘nalish, manba, yo‘l va maqsad kabi semantik komponentlari hamda ularning izohli va ikki tilli lug‘atlarda ifodalanish xususiyatlari qiyosiy jihatdan tadqiq etiladi.*

Kalit so‘zlar: *yo‘nalma harakat fe’llari, valentlik, argument strukturasi, semantik rol, yo‘nalish, manba, maqsad, yo‘l, leksikografiya, qiyosiy tilshunoslik, tarjima ekvivalenti, o‘zbek tili, ingliz tili.*

ВАЛЕНТНОСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ И ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ГЛАГОЛОВ НАПРАВЛЕННОГО ДВИЖЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В статье в сопоставительном аспекте исследуются валентностные особенности глаголов направленного движения в узбекском и английском языках, их аргументная структура, а также семантические компоненты направления, источника, пути и цели движения и способы их лексикографического представления.*

Ключевые слова: *глаголы направленного движения, валентность, аргументная структура, семантическая роль, направление, источник, цель, путь, лексикография, сопоставительное языкознание, переводной эквивалент, узбекский язык, английский язык.*

VALENCY FEATURES AND LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION OF DIRECTIONAL MOTION VERBS IN UZBEK AND ENGLISH

Annotation. *This article presents a comparative study of the valency features and lexicographic representation of directional motion verbs in Uzbek and English. Particular attention is paid to argument structure and the semantic components of direction, source, path, and goal.*

Keywords: *directional motion verbs, valency, argument structure, semantic role, direction, source, goal, path, lexicography, contrastive linguistics, translation equivalent, Uzbek, English.*

Kirish. Harakat insonning makon va vaqt bilan munosabatini ifodalovchi universal kognitiv hodisalardan biri bo‘lib, uning tilda ifodalanishi har bir tilning grammatik, leksik-semantik va tipologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, yo‘nalma harakatni bildiruvchi fe’llar oddiy harakatni emas, balki harakatning qayerdan boshlangani, qaysi yo‘nalishda amalga oshgani, qanday yo‘l orqali kechgani va qaysi nuqtada yakunlangani kabi murakkab semantik munosabatlarni ham ifodalaydi. Zamonaviy harakat fe’llari tadqiqotlarida *source, path, goal, direction* va *deixis* kabi komponentlarning alohida ahamiyatga egaligi ko‘rsatiladi. Yo‘nalma harakat fe’llarining qiyosiy o‘rganilishida valentlik tushunchasi alohida nazariy ahamiyat kasb etadi. Valentlik fe’lning gap tarkibida muayyan sintaktik-semantik o‘rinlarni talab qilish yoki ochish imkoniyatini bildiradi. Masalan, o‘zbek tilidagi *bormoq* fe’li, odatda, harakatlanuvchi subyektni va yo‘nalish/maqsad komponentini talab qiladi: *U Toshkentga bordi*. Ingliz tilidagi *go* fe’li esa *He went to Tashkent* shaklida xuddi shunday subyekt va maqsad komponentlari bilan kelishi mumkin. Biroq ikki tildegi mazkur moslik mutlaq emas. Chunki yo‘nalishning grammatik ifodalanishi, argumentlarning shakliy ko‘rsatkichi va fe’l bilan bog‘lanish usullari tillararo farqlanadi. Masalan, *enter* fe’li “biror joy ichiga kirmoq” ma’nosini o‘zida mujassamlashtiradi: *He entered the room*. O‘zbek tilida esa mazkur ma’no *U xonaga kirdi* shaklida ifodalanadi. Bu yerda ingliz tilidagi *enter* fe’li bevosita obyekt bilan bog‘lansa, o‘zbek tilidagi *kirmoq* fe’li yo‘nalish kelishigidagi *xonaga* komponenti bilan bog‘lanadi. Demak, tarjimada lug‘aviy ekvivalentning mavjudligi avtomatik ravishda valentlik modelining ham aynan mos kelishini anglatmaydi. Mazkur muammo leksikografiya uchun ham muhimdir.

Fe’l lug‘atda faqat “tarjimasi” yoki “izohi” bilan berilganda uning argument strukturasi, sintaktik modeli, semantik rollari va tipik birikuvchanligi to‘liq aks etmasligi mumkin. Shu sababli zamonaviy ikki tilli lug‘atlarda ekvivalent bilan bir qatorda, boshqaruv modeli, masalan, kollokatsiya va semantik belgilarning ko‘rsatilishi muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yo‘nalma harakat fe’llarining nazariy asoslari, avvalo, fe’l semantikasi va valentlik nazariyasi bilan bog‘liq. L.Tesniere tomonidan ishlab chiqilgan valentlik konsepsiyasi fe’lning o‘z atrofida muayyan aktantlarni birlashtirish xususiyatini tushuntirishga asos bo‘ldi. O‘zbek tilshunosligida R.Rasulovning fe’l ma’nosi strukturasi, S.X.Muhamedovaning yo‘nalish harakat fe’llarining predikativligi va valentligi bo‘yicha ishlari muhim ahamiyatga ega. O‘zbek va ingliz tillaridagi harakat fe’llarining qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlarda esa harakatning yo‘nalishi, aspektual xususiyatlari va semantik mikromaydonlari o‘rganilgan. Xususan, ingliz va o‘zbek lug‘atlarida yo‘nalma harakat fe’llarining *path, orientation, endpoint, manner* kabi komponentlari turlicha ifodalanishi ko‘rsatilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy-chog‘ishtirma, semantik-komponent, valentlik, distributiv, kontekstual va leksikografik tahlil metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy metod yordamida o‘zbek va ingliz tillaridagi yo‘nalma harakat fe’llarining umumiy va farqli xususiyatlari aniqlanadi. Semantik-komponent tahlil orqali fe’l ma’nosidagi harakatlanuvchi subyekt (Figure), manba (Source), yo‘l (Path), yo‘nalish (Direction), maqsad (Goal) komponentlari ajratiladi. Valentlik tahlilida fe’lning nechta argumentni talab qilishi va bu argumentlarning qanday grammatik shaklda yuzaga chiqishi tekshiriladi. Leksikografik tahlilda fe’lning lug‘atdagi izohi, tarjima ekvivalenti, boshqaruv modeli, misollari va semantik belgilari o‘rganiladi.

Tahlil va natijalar. Yo‘nalma harakat fe’llarining asosiy semantik modeli quyidagicha ifodalanishi mumkin: FIGURE → MOTION → PATH → GOAL ya’ni, HARAKATLANUVCHI → HARAKAT → YO‘NALISH/YO‘L → MAQSAD. Masalan: *U Toshkentga bordi*. Bu gapda: *U* – Figure / harakatlanuvchi; *bordi* – Motion; *Toshkentga* – Goal / yo‘nalish-maqsad. Ingliz tilida: *He went to Tashkent.* Bu yerda: *He* – Figure; *went* – Motion; *to Tashkent* – Goal. Ko‘rinib turibdiki, semantik struktura jihatidan ikki til o‘rtasida yuqori darajadagi moslik mavjud. Biroq grammatik ifoda usulida farq mavjud: o‘zbek tilida maqsad komponenti -ga kelishik qo‘shimchasi orqali, ingliz tilida esa to predlogi orqali ifodalangan. Shunday qilib, birinchi valentlik modeli: *Uzbek: V + NP-DAT English: V + to + NP* Masalan: Ingliz tilidagi *go* va o‘zbek tilidagi *bormoq* bir-biriga yaqin ekvivalentlardir. *She went to London. U Londonga bordi.* Bu yerda inglizcha *to London* va o‘zbekcha *Londonga* bir xil semantik rol – Goalni ifodalaydi.

Ammo He went home. o‘zbek tiliga: U uyga bordi. deb tarjima qilinadi. Ingliz tilida *home* ayrim kontekstlarda predlogsiz kelishi mumkin, o‘zbek tilida esa *uyga* shakli yo‘nalish kelishigi orqali quriladi. Demak: *go+Goal* modelining ikki tildagi shakliy realizatsiyasi bir xil emas. Leksikografik jihatdan *go* fe’lini faqat “bormoq, ketmoq” deb berish yetarli emas. Chunki *go* ko‘plab kontekstlarda “bormoq”, “ketmoq”, “harakatlanmoq”, “ishlamoq”, “sodir bo‘lmoq” kabi turli ma’nolarni yuzaga chiqaradi. Shu sababli lug‘at maqolasida semantik differensiallash zarur: *go¹–biror joyga harakatlanib bormoq; go² – biror joydan ketmoq; go³ –faoliyatni davom ettirmoq/amalga oshirmoq;go⁴ –holatga o‘tmoq.* Demak, valentlik lug‘atdagi polisemiya tarmoqlarini ajratishda ham muhim mezon bo‘la oladi. *Come* va *kelmoq* fe’llari *go–bormoq* juftligiga qarama-qarshi deiktik munosabatni yuzaga chiqaradi. *Come here. Bu yerga kel. He came to Tashkent. U Toshkentga keldi.* Bu fe’llarning o‘ziga xos jihati shundaki, harakat faqat makondagi siljish emas, balki nutq subyekti yoki referens nuqtasiga tomon yo‘nalishni ham anglatishi mumkin. Masalan: Are you coming to the conference? Bu gapni: Konferensiyaga kelasizmi? deb tarjima qilish mumkin. Bu yerda *come* “kelmoq” ma’nosida, ya’ni, harakatning deiktik markazga yoki suhbat ishtirokchilari uchun muhim bo‘lgan manzilga yo‘nalganini bildiradi. Shu sababli lug‘at maqolasida *come* uchun oddiy “kelmoq” ekvivalenti bilan cheklanmasdan deiktik xususiyat ham ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq. Yo‘nalma harakat fe’llarining eng muhim qiyosiy holatlaridan biri *enter–kirmoq* juftligida kuzatiladi. *He entered the room.* O‘zbekcha: *U xonaga kirdi.* Ingliz tilida: *enter+NP*; O‘zbek tilida: *kirmoq+NP-DAT* Demak, semantik jihatdan ikkala fe’l ham: *Figure+Motion+Goal* modelini ifodalaydi. Ammo sintaktik valentlik modeli: English**:** enter + object Uzbek: kirmoq+yo‘nalish kelishigidagi component ko‘rinishida farqlanadi. Bu holat tarjimada juda muhim. Agar ingliz tilidagi *enter* fe’li avtomatik ravishda o‘zbek tilidagi tranzitiv fe’l modeli bilan talqin qilinsa, *U xonani kirdi* kabi noto‘g‘ri konstruksiya yuzaga kelishi mumkin. Shu bois ikki tilli lug‘atda quyidagi model aniq ko‘rsatilishi kerak: enter+place→*biror joyga kirmoq* Masalan: *enter the room→xonaga kirmoq* Bu yerda lug‘at foydalanuvchisi nafaqat tarjima ekvivalentini, balki fe’lning boshqaruv modelini ham ko‘radi. *Exit* va *leave* fe’llari o‘zbek tiliga kontekstga qarab *chiqmoq*, *tark etmoq*, *ketmoq* kabi birliklar orqali tarjima qilinishi mumkin. Masalan: *He left the room. U xonadan chiqdi.* Bu yerda: *He* – Figure; *left* – Motion; *the room* – Source. O‘zbek tilida esa: *U* – Figure; *xonadan* – Source; *chiqdi* – Motion. Demak, semantik rol bir xil, lekin uning grammatik ifodasi: English: leave+NP Uzbek: chiqmoq+NP-ABL shaklida namoyon bo‘ladi. Bu yerda, ayniqsa, Source komponentining o‘zbek tilida chiqish kelishigi bilan ifodalanishi muhim. *She left the house. U uydan chiqdi.* Bu misol *leave* fe’lining o‘zbekcha tarjimasida har doim *ketmoq* ishlatilmasligini ko‘rsatadi. Masalan: *She left for London. U Londonga jo‘nab ketdi.* Bu holatda esa maqsad komponenti ustunlashadi. Shunday qilib, *leave* fe’lining tarjimasida *Source va Goal* componentlarining kontekstual faolligi asosiy rol o‘ynaydi. *Arrive* fe’li oddiy harakatdan ko‘ra maqsadga yetib borish semantikasini kuchliroq ifodalaydi. *The train arrived at the station.* O‘zbek tilida: *Poyezd bekatga yetib keldi.* Bu yerda: *Figure+arrive+Goal* modeli mavjud. Biroq *arrive* fe’lining o‘zbekcha ekvivalenti kontekstga qarab, *yetib kelmoq*, *yetib bormoq*, *kelmoq*, *yetmoq* shakllarida berilishi mumkin. Masalan: *They arrived in Tashkent. Ular Toshkentga yetib kelishdi.* Bu yerda *arrive* fe’li harakatning yakuniy nuqtaga erishilganini bildiradi. Shu sababli leksikografik izohda*: arrive–ma’lum bir joyga borib yetmoq* kabi semantik tavsif oddiy *“kelmoq”* ekvivalentiga nisbatan aniqroqdir. *Return* va *qaytmoq* fe’llarida harakatning oddiy yo‘nalishidan tashqari takroriy yo‘nalish va oldingi makoniy nuqtaga qaytish komponenti mavjud. *He returned home. U uyiga qaytdi.*

Bu yerda: *Figure+Motion+Goal* bilan birga, *Previous location* komponenti ham mavjud. Ya’ni: *return=move back to a previous location.*Mazkur semantik komponent *qaytmoq* fe’lining ham asosiy ma’no yadrosini tashkil qiladi. Shu bois lug‘atda *return – qaytmoq* tarzidagi oddiy ekvivalent bilan birga: *return to a place → biror joyga qaytmoq* modelini ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Ascend – ko‘tarilmoq va descend – tushmoq Vertikal yo‘nalishni bildiruvchi fe’llarda *UP/DOWN* semantik komponentlari yetakchi hisoblanadi. *The plane ascended rapidly. Samolyot tez ko‘tarildi. The man descended the stairs. Erkak zinadan tushdi.* Bu birliklarda:*ascend = UPWARD MOTION; descend = DOWNWARD MOTION* semantik modellarini ko‘rish mumkin. O‘zbek tilida *ko‘tarilmoq* va *tushmoq* fe’llari, ko‘pincha, yo‘nalishni fe’lning o‘z leksik ma’nosida ifodalaydi. Ingliz tilida esa *up/down* partikula yoki predloglari qo‘shimcha ravishda yo‘nalishning aniqligini kuchaytirishi mumkin: *He went up the stairs. U zinadan yuqoriga ko‘tarildi. He went down the stairs. U zinadan pastga tushdi.* Demak, ingliz tilida bitta umumiy *go* fe’li qo‘shimcha yo‘nalish vositalari bilan semantik jihatdan differensiallashishi mumkin. Yo‘nalma harakat fe’llarini tarjima qilishda asosiy muammo *lug‘aviy ekvivalentlik bilan valentlik ekvivalentligi bir xil emasligi* bilan bog‘liq. Quyidagi misollar buni yaqqol ko‘rsatadi:

Inglizcha	O‘zbekcha	Asosiy semantik rol	Valentlik farqi
He went to Tashkent.	*U Toshkentga bordi.*	Goal	to + NP / NP-ga
She came to the room.	*U xonaga keldi.*	Goal	to + NP / NP-ga
He entered the room.	*U xonaga kirdi.*	Goal	V + Object / V + NP-ga
He left the room.	*U xonadan chiqdi.*	Source	V + Object / NP-dan
They arrived at the station.	*Ular bekatga yetib kelishdi.*	Goal	at + NP / NP-ga
He returned home.	*U uyiga qaytdi.*	Goal	home / NP-ga
He went up the stairs.	*U zinadan yuqoriga ko‘tarildi.*	Path/Goal	particle + NP / NP-dan + adverb

Jadvaldan ko‘rinadiki, tarjimada fe’lning lug‘aviy ekvivalentini topish yetarli emas. Fe’lning qaysi semantik rolni qanday grammatik shaklda talab qilishi ham aniqlanishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, tarjima ekvivalentligini uch darajada tasniflash mumkin: 1. To‘liq valentlik ekvivalentligi *go to Tashkent → Toshkentga bormoq;* Semantik va sintaktik model deyarli mos. 2. Qisman valentlik ekvivalentligi *enter the room → xonaga kirmoq;* Semantik model mos, ammo argumentning grammatik shakli farq qiladi. 3. Kontekstual valentlik ekvivalentligi *leave the room → xonadan chiqmoq; leave for London → Londonga jo‘nab ketmoq* Bir inglizcha fe’l turli kontekstlarda turli o‘zbekcha fe’llar bilan tarjima qilinishi mumkin. Bunda valentlik modeli ham o‘zgaradi. Lug‘at tuzishda yo‘nalma harakat fe’llari uchun quyidagi parametrlarni berish maqsadga muvofiq: *fe’lning asosiy lug‘aviy ma’nosi; semantik yo‘nalish; Source komponenti; Goal komponenti; Path komponenti; deiktik xususiyat; valentlik modeli; sintaktik boshqaruv; tarjima ekvivalenti; tipik kontekst; kollokatsiyalar; ko‘p ma’nolilik holatlari.* Masalan, *enter* uchun: enter /ˈentə/ v. biror joyning ichiga kirmoq; Valency: enter + place/object Uzbek equivalent: *...ga kirmoq* Example: *He entered the room. – U xonaga kirdi. leave* uchun: leave/li:v/v. biror joyni tark etmoq; biror joydan chiqib ketmoq; Source: leave + place Uzbek: *...dan chiqmoq / ...ni tark etmoq* Example: *She left the room. – U xonadan chiqdi.* Bunday tavsif lug‘at foydalanuvchisiga faqat tarjimani emas, fe’lning sintaktik-semantik imkoniyatini ham anglash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. O‘zbek va ingliz tillaridagi yo‘nalma harakat fe’llarining valentlik va leksikografik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish quyidagi ilmiy xulosalarga kelish imkonini berdi. Yo‘nalma harakat fe’llari oddiy harakatni ifodalovchi birliklar emas, balki harakatlanuvchi subyekt, yo‘nalish, manba, yo‘l va maqsad kabi bir nechta semantik komponentlarni o‘zida birlashtiruvchi murakkab leksik-semantik birliklardir. Shu sababli ularning lug‘aviy tavsifida fe’lning faqat umumiy ma’nosini berish yetarli emas. O‘zbek va ingliz tillarida yo‘nalma harakat fe’llarining semantik yadrosi ko‘p hollarda umumiy bo‘lsa-da, ularning valentlikni grammatik realizatsiya qilish usullari sezilarli darajada farqlanadi. Ingliz tilida predloglar va partikula konstruksiyalari muhim rol o‘ynasa, o‘zbek tilida kelishik qo‘shimchalari, ko‘makchilar, yordamchi fe’llar va mustaqil yo‘nalish fe’llari faol qo‘llanadi. O‘zbek-ingliz ikki tilli lug‘atlarni takomillashtirish uchun valentlikka asoslangan mikrostrukturaviy lug‘at modeli ishlab chiqish zarur. Bunday model tarjimon, talaba, o‘qituvchi va lug‘at tuzuvchiga fe’lning nafaqat “nimani anglatishi”, balki “qanday qurilmada qo‘llanishi”ni ham ko‘rsatadi. Yo‘nalma harakat fe’llarining qiyosiy leksikografik tavsifi *semantika–valentlik–sintaksis–tarjima–lug‘atchilik* birlikligida olib borilgandagina to‘laqonli ilmiy natija beradi. Aynan shu yondashuv yo‘nalma harakat fe’llarining ikki tildagi umumiy universal semantik asoslarini va milliy tilga xos ifoda mexanizmlarini bir vaqtning o‘zida ochib berish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Tesnière L. Éléments de syntaxe structurale. Paris, Klincksieck, 1959.

(2). Talmy L. Lexicalization Patterns: Semantic Structure in Lexical Forms // Language Typology and Syntactic Description. Vol. III. Cambridge, Cambridge University Press, 1985, p. 57–149.

(3). Levin B. English Verb Classes and Alternations: A Preliminary Investigation. Chicago, University of Chicago Press, 1993, 366 p.

(4). Levin B., Rappaport Hovav M. Unaccusativity. At the Syntax-Lexical Semantics Interface. Cambridge, MA: MIT Press, 1995.

(6). Slobin D.I. Verbs of Motion in First and Second Language Acquisition // Cognition. 1982, vol. 12, № 2, p. 229–253.

(7). Jackendoff R. Semantic Structures. Cambridge, MA: MIT Press, 1990.

(8). Fillmore C.J. Scenes-and-Frames Semantics // Linguistic Structures Processing. Amsterdam: North-Holland, 1977, p. 55–82.

(9). Rasulov R. O‘zbek tilida fe’l semantikasi. Toshkent, “Fan”, 2008, 142-bet.

(10). Muhamedova S.X. O‘zbek tilida yo‘nalish harakat fe’llarining predikativligi va valentligi. Filol. fan. nomz. diss. avtoref., Toshkent, 1999, 22-bet.
(11). Bo‘ronov J. Ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1973, 284-bet.
(12). Makhmudov D.R. Semantic and Cognitive Patterns of Directional Motion Verbs in English and Uzbek: A Comparative Typological Investigation//Scientific and Innovative Research in the Social and Humanitarian Sphere. 2026, vol. 3, № 8, p. 149–153.
(13). Makhmudov D.R. Lexicographic Description and Comparative Analysis of Directional Motion Verbs in English and Uzbek Dictionaries. Pedagogical Sciences and Teaching Methods. 2026.

Raxmatova Rayhona Mirzohid qizi (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti “Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi” kafedrasi tayanch doktoranti;
E-mail: rayhonraxmatova59@gmail.com; orcid.org/0009-0003-4251-6750)

HALIMA AHMEDOVANING “KATTA QUSH” NOMLI HIKOYASIDA INSONPARVARLIK, MEHR VA SOG‘INCH MOTIVLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Halima Ahmedovaning “Katta qush” nomli hikoyasidagi badiiy-g‘oyaviy xususiyatlar tahlilga tortilgan. Hikoyadagi inson va tabiat munosabati, insonparvarlik, mehr-shafqat, shuningdek, bolalar ruhiyatining badiiy talqini kabi masalari yoritilgan. Hikoyadagi katta qush obrazi esa, ramziy timsol sifatida talqin qilinadi va erkinlik, poklik g‘oyalarini ifodalashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *qish, ov, katta qush, ma’yus ko‘zlar, shifokor, Sharif aka, Shokirjon, geografiya, qush tulumi, sog‘inch.*

Рахматова Райхона Мирзохид кизи (базовый докторант кафедры литературы периода независимости и теории литературы Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова; E-mail: rayhonraxmatova59@gmail.com; orcid.org/0009-0003-4251-6750)

МОТИВЫ ГУМАНИЗМА, МИЛОСЕРДИЯ И ТОСКИ В РАССКАЗЕ ХАЛИМЫ АХМЕДОВОЙ “БОЛЬШАЯ ПТИЦА”

Аннотация. *В данной статье анализируются художественно-идейные особенности рассказа Халимы Ахмедовой «Большая птица». Особое внимание уделяется взаимоотношениям человека и природы, мотивам гуманизма и милосердия, а также художественной интерпретации детской психологии. Образ большой птицы рассматривается как символический образ, воплощающий идеи свободы, чистоты и духовной нравственности.*

Ключевые слова: *зима, охота, большая птица, грустные глаза, врач, Шариф-ака, Шокиржон, география, чучело птицы, тоска, гуманизм, милосердие.*

Raykhona Mirzokhid qizi Rakhmatova (PhD Researcher, Department of Independence Period Literature and Literary Theory, Samarkand State University named after Sharof Rashidov;
E-mail: rayhonraxmatova59@gmail.com; orcid.org/0009-0003-4251-6750)

THE MOTIFS OF HUMANISM, COMPASSION, AND LONGING IN HALIMA AHMEDOVA’S SHORT STORY *“THE BIG BIRD”*

Annotation. *This article analyzes the artistic and ideological features of Halima Ahmedova’s short story “The Big Bird”. It examines the relationship between humans and nature, the themes of humanism and compassion, as well as the artistic interpretation of children’s psychology. The image of the big bird is interpreted as a symbolic representation that serves to express the ideas of freedom, purity, and spiritual nobility.*

Keywords: *winter, hunting, big bird, sorrowful eyes, doctor, Sharif Aka, Shokirjon, geography, bird specimen, longing, humanism, compassion.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida salmoqli ijod qilayotgan yozuvchilar juda ko‘p. Hikoyalardagi mavzu va g‘oyalar turli ijtimoiy muammolarni ham, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ham, qolaversa, davr muammolarini ham yoritishga qaratilgani bilan bir-biridan farq qilib turadi. Ular orasida ayniqsa, umuminsoniy qadriyatlar g‘oyasiga qaratilgan hikoyalar alohida ajralib turadi. Nasrda ham barakali ijod qilayotgan shoira va yozuvchi Halima Ahmedovaning hikoyalari aynan shunday xususiyatlarni ko‘rsatib bera olishi bilan boshqa hikoyalardan ajralib turadi. Yozuvchining qator hikoyalarida, masalan, “Umid darichasi”, “Yovvoyi tanovar”, “Katta qush” kabi hikoyalarida insoniy qadriyatlarga alohida urg‘u berilganligining guvohi bo‘lish mumkin. Ayniqsa, maqolada tahlil qilingan “Katta qush” nomli hikoyasi fikrimizning yaqqol namunasi bo‘la oladi. Hikoya obrazlar tizimi, badiiy yechimi va falsafiy mazmuni bilan boshqa hikoyalardan ajralib turadi. Ayniqsa, fojiaviy yakun o‘quvchini mushohada qilishga undaydi.